

# **Uzbekistan Airways xodimlari ISO kursi bo'yicha malaka oshirdi**

**2025 8 iyul**

2025-yil 1-4-iyul kunlari Toshkent shahridagi CERT Academy xalqaro o'quv markazida "Uzbekistan Airways" AJ xodimlari uchun "ISO 37001:2025 - Korruptsiyaga qarshi boshqaruv tizimi menejeri / Ichki auditori" maxsus dasturi bo'yicha korporativ o'quv kursi bo'lib o'tdi.

Mazkur trening kompaniyaning ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatiga erishish va samarali antikorruptsiya menejment tizimini joriy etish yo'llidagi bosqichma-bosqich ishlarining davomi sifatida tashkil etildi.



Korruptsiyaga qarshi mexanizmlarni takomillashtirish va mustahkam komplaens tizimini shakllantirish — “Uzbekistan Airways” Ajning strategik ustuvor yo’nalishlaridan biridir. Trening kompaniya ichki jarayonlarida ochiqlik va halollik standartlarini joriy etishga doir faol ishlarning mantiqiy davomiga aylandi.

Treningda bosh ofis hamda filiallar, jumladan:

- “Uzbekistan Airways Technics”
- “Uzbekistan Airways Sales”
- “Ketring”
- “O’quv-trening markazi”

- “Helicopters”

shuningdek, quyidagi bo‘limlarning mutaxassislari ishtirok etdi:

- Kadrlar bo‘limi
- Yuridik boshqarma
- Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi
- Moliya departamenti
- Xaridlar departamenti va boshqa korporativ nazorat tizimi ishtirokchilari

Treningni TÜV International Certification (Germaniya) va CERT International (Slovakiya) tashkilotlarining xalqaro auditori, antikorruptsiya sohasida tajribali mutaxassis Ildar Inelev olib bordi. U IRCA (Buyuk Britaniya) dasturi bo‘yicha xalqaro tayyorgarlikdan o’tgan va yuridik ma’lumotga ega.



O'quv dasturi qatnashchilarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy vositalarni ham taqdim etdi — bu esa ISO 37001 tizimini aviakompaniya tuzilmasida bosqichmabosqich joriy etish imkonini beradi.

"Uzbekistan Airways" AJ kelgusida ham quyidagi yo'nalishlarda tizimli faoliyatni davom ettiradi:

- antikorruptsiya siyosatini amalda joriy etish;
- yagona komplains tizimini shakllantirish;
- ISO 37001:2016 standarti bo'yicha tashqi sertifikatsiyaga tayyorgarlik.

Trening yakunida ishtirokchilar test sinovidan o'tadilar va ISO 37001:2025 tizimi bo'yicha menejerlar va ichki auditorlar sifatida xalqaro namunadagi sertifikatlar bilan taqdirlanadilar.



Bu seminar — kompaniyada korporativ madaniyatni oshirish, korruptsion xatarlarni kamaytirish va xalqaro obro'-e'tiborni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.